



No5(4)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 322 sahifa,
18-may, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

O'quvchi yoshlarni muhandislik kasblariga yo'naltirishda xorij tajribasi.....	10
<i>Maxamov X. T., Omondavlatova Sofiya Baxtiyor qizi</i>	
2-sinf darslarida "4K" ko'nikmalarini shakllantirish: XXI asr savodxonligi poydevori	14
<i>Jo'rayeva Nargiza O'ktamovna</i>	
Ommaviy axborot vositalarining inson ruhiy salomatligiga ta'siri: empirik tadqiqot natijalari.....	18
<i>Abdinazarova Bibixonim Rashid qizi</i>	
Talabalar uchun amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda texnik loyihalarning o'rni	23
<i>Axmadaliyev Mansurbek Erkaboy o'g'li, Rejabov Jaloliddin Sadiq o'g'li</i>	
Masalalarni modellashtirish metodi yordamida yechish yo'llari	28
<i>B. B. Qarshiyev, Bekmuradov Bobur Toyloq o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida elektron o'quv materiallaridan foydalanishning afzalliklari.....	34
<i>Tog'aymurodova Marjona Yusuf qizi</i>	
Raqamli ta'lim muhitida dizaynerlik faoliyatlarini rivojlantirishning zamonaviy metodlari.....	39
<i>Satvoldiyeva Malaxatxon A'zamjanovna</i>	
Metall va metallmas buyumlarga ishlov berish texnologiyasi fanidan amaliy dars mashg'ulotlarini raqamli texnologiyalar asosida o'qitish metodikasi	47
<i>A. Safarov</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirish mezonlari.....	57
<i>Xolmatov Doston Dilshod o'g'li</i>	
7–8-sinf biologiya darslarida kompetensiyaviy yondashuvni takomillashtirish metodikasi	60
<i>Xolmurodova Sarvinov</i>	
Zamonaviy adabiyotda lider ayol portreti va shaxsiy rivojlanish falsafasi.....	64
<i>G'afforova Dildora Ergashevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn ustida ishlash metodikasini takomillashtirishning pedagogik asoslari.....	69
<i>Yusupova Umida Zayniddin qizi</i>	
Umumta'lim maktabida xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalashda kreativ yondashish texnologiyalarining mazmun-mohiyati.....	74
<i>Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich, G'aniyeva Dilfuza A'lam qizi</i>	
Oila muhitining raqamli tadbirkorlik motivatsiyasiga ta'siri: psixologik tahlil	78
<i>Tursunov Lutfulla Sayfullayevich, Boyqobilova Sevinch Fazliddin qizi</i>	
Maktab va muzeylar aloqadorligini ta'minlash asosida o'quvchilarni ma'naviy merosga hurmat ruhida tayyorlashning pedagogik texnologiyasi	81
<i>Nizomxonova Nargizaposhsho Ekrixon qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida produktiv o'qish malakasini shakllantirish.....	86
<i>Xurramova Sojida Abdunazar qizi</i>	
Oliy ta'lim tizimida liderlik kompetensiyalarini takomillashtirishning kompleks yondashuvlari	91
<i>Risvayeva Charos Zaydilla qizi</i>	
Sport sohasining ommaviyligi va inklyuzivligi	94
<i>Z. N. Urunova, M. Jaborova</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida psixologik muhitni swot-tahlil qilish va korreksiyalash	97
<i>Sattorova Shirinoy San'atovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kognitiv kompetentligini rivojlantirishda integrativ yondashuv ..	100
<i>Buvrayev Akram Rustam o'g'li</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy nutqiga qo'yiladigan talablar	104
<i>Xolmuminova Dilfuza Xolmamatovna</i>	
O'qituvchining kasbiy faoliyatida ma'naviy-axloqiy fazilatlarining ahamiyati	107
<i>Jumanazarova Dilnoza Umurzaqovna</i>	



Hadislar yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish	111
<i>Akaboyeva Malika Raxmatovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatish texnologiyasi	114
<i>Beshimova Muazzam Bahodirovna, To'lanboyeva Farangis Ibrohimjon qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tili fanini o'qitishda kreativlik qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari	117
<i>Xoliyeva Sevara Rustam qizi</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda multimedia texnologiyalaridan foydalanish kompetensiyasini tarkib toptirish	122
<i>Narmatova Fotima Dilshod qizi</i>	
Organizing Physics Lessons in General Education Schools Based on Gamification Elements	127
<i>Y. A. Mamatokhunov, U. S. Ismoilov, M. A. Muxtorjonova</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda didaktik o'yinlarning samaradorligi....	129
<i>Meyliyeva Sevinch Bozor qizi</i>	
Anoreksiyasi va bulimiyaning psixologik determinantlari hamda klinik jihatlarini	132
<i>Askarova Nargiza Abdivaliyevna, To'raqulova Sevinch Sattorjon qizi</i>	
Koxlear implantli bolalar fonematik eshituvini shakllantirish asosida tovush talaffuzini shakllantirish	136
<i>Bozorov Otabek Yo'ichi o'g'li, Yakubova Asalxon Ulug'bek qizi</i>	
Qisqa masofaga yuguruvchi yosh sportchilarning kuch va tezlik-kuch ko'rsatkichlarini rivojlantirishda yillik rejalashtirish samaradorligi	139
<i>Eshpulatov Jamshid Nuraliyevich</i>	
Разработка модуля автопрокторинга для платформ дистанционного обучения на основе компьютерного зрения и анализа активности пользователя	144
<i>Дустқобилов Акмал Бобомуродович</i>	
Определение нарушений академической честности на онлайн-экзаменах на основе компьютерного зрения: алгоритм и эффективность модуля kameraproctor	149
<i>Дустқобилов Акмал Бобомуродович, Маматов Ислонбек Ильесович</i>	
Zamonaviy ta'limda sun'iy intellekt texnologiyalari: imkoniyatlar, muammolar va istiqbollar	154
<i>Delov To'liqin Erkinovich, Gulmirzayeva Zulayho Ko'k'lanboy qizi</i>	
Ijtimoiy tarmoqlarning talaba yoshlar psixologiyasiga ta'siri	160
<i>Saidakbarova Nigora Abduraxim qizi</i>	
Talabalarni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning besh blokli pedagogik modeli	165
<i>Amonov Mirjon Namozovich</i>	
O'smirlarning raqamli texnologiyalarga qaramligi va uning psixologik salomatlikdagi o'rni	170
<i>Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li, Normamatova Aziza Ibroxim qizi</i>	
Qizlarda erta nikohning psixologik omillari va sabablari	174
<i>Sodiqova Gulbarno Odiljon qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv motivlarini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari	178
<i>Jumayeva Guzal Xayriddin qizi</i>	
Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarda barmoqlar harakati mashqlari asosida kichik motorika va harakat koordinatsiyasini rivojlantirish	183
<i>Mirzakarimov Yuldashboy Abdinabiyeich</i>	
Globalashuv sharoitida yoshlar tashkilotlari orqali milliy o'zlikni anglashni shakllantirishning pedagogik strategiyalari	187
<i>Axralova Marg'uba Akmalxanovna</i>	
Tarbiya fani asosida o'quvchilarda huquqiy kompetentlikni rivojlantirish imkoniyatlari	191
<i>Jumanova Xafiza Xoliqulovna</i>	
Zamonaviy ilmiy-texnika taraqqiyoti sharoitida texnologik ta'lim mazmunini STEM yondashuvi asosida integratsiyalash va talabalarning texnik fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	196
<i>Imanov Baxtiyor Berdiyevich, Qulmamatova Xurshida Abduxamidovna, Barataliyeva Nasiba Maxmadaminovna</i>	
Ijodiy kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv jarayonining mazmuniy ta'minoti	202
<i>Kubayeva Mavluda Baxtiyor qizi</i>	

The Influence of a Competency-Based Approach on Educational Quality in Physics Instruction	205
<i>A. Xakimov, Yorqinjon Abduraimjanovich Mamatokhunov, M. A. Ne'matova</i>	
Umumta'lim maktablarida o'quvchilarning ekologik savodxonligini shakllantirishning amaliy holati	208
<i>Majitov Turg'unali Anvar o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilariga ingliz tilini o'rgatishning pedagogik va psixologiyistik xususiyatlari	214
<i>Ismoilova Muattar Ilyosovna</i>	
Sharq mutafakkirlarining yoshlarni mehnat va kasb-hunarga o'rgatish bo'yicha qarashlari	219
<i>Alqarov Qodir Xolmatovich, Irmatov Pirmuhammad Normat o'g'li</i>	
Metallar mavzusini interfaol metodlar asosida o'qitish orqali o'quvchilar kreativligini oshirish	222
<i>Murodova Sayyora Qanoatovna</i>	
Moliyaviy terminlarni tarjima qilishning metodologik muammolari	226
<i>Norboyeva Dilafuz Djumaqulovna, Suvonov Ozodbek Jamshid o'g'li</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida yakuniy nazorat jarayonlarini sun'iy intellekt texnologiyalari asosida tashkil etishning afzalliklari	230
<i>Abdunabiyeva Kamola Mansurovna</i>	
Pedagogik ta'limda AI-tutor texnologiyalaridan foydalanish: o'zaro ta'sir mexanizmi va samaradorlik tahlili	236
<i>Abdunabiyeva Maftunaxon Solijon qizi</i>	
Talabalarda prokrastinatsiyani kamaytirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	240
<i>Kozimov Sayfullah Maxammadjon o'g'li</i>	
Kompetensiyaviy yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirish	245
<i>Raximov Zokir Toshmirovich</i>	
Yosh voleybolchilarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarliklarini oshirishning pedagogik asoslari	249
<i>Temirov Shoirbek Raimjonovich</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv jarayonlari mexanizmlarini takomillashtirish	253
<i>Kimsanova Rahnamo Solijonovna</i>	
Milliy kurash vositasida yoshlarning irodaviy sifatlarini rivojlantirish	257
<i>Muratov Muzaffar Shermamatovich</i>	
Xavotirlanish muammosining psixologik-pedagogik adabiyotlarda o'rganilganligi va o'smirlik davrining psixologik xususiyatlari	261
<i>Mutalibjonov Nurillo Iroiljon o'g'li</i>	
Bo'lajak pedagoglarda kreativ tafakkurni rivojlantirishning innovatsion va refleksiv asoslari	264
<i>Oblayeva Lobar Erdonovna</i>	
STEM Education Technology: Physics Teaching Methodology and Future Innovations	268
<i>Yorqinjon Abduraimjanovich Mamatokhunov, Odinakhon Sotvoldiyeva Abdumannob qizi</i>	
Mustaqil ta'limni tashkil etishning nazariy asoslari	272
<i>Qurbonova Buzaynab Nurmuxammadiyevna</i>	
Maktabgacha tarbiya yoshda bolalar kognitiv sohasining tadqiq qilinishi	276
<i>Raxmonova Shaxrizoda Laziz qizi</i>	
Modernization of Physics Teaching Methodology Based on Stream Integration in Vocational Schools	279
<i>S. Z. Zaynobiddinov, Yorqinjon Abduraimjanovich Mamatokhunov, Z. M. Orifjonova</i>	
Cultural Competence as a Core Component of Foreign Language Teaching: Theoretical Foundations and Pedagogical Integration	282
<i>Shahlo Obidova</i>	
Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida talabalarining akmeologik madaniyatini rivojlantirishda ART-pedagogik texnologiyalardan foydalanish	286
<i>Shodmonova Shoir Saidovna, Sharifova Dildora Shavkiddin qizi</i>	
Talabalarining to'garak mashg'ulotlari orqali ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish yo'llari	290
<i>Turakulova Feruza Mamadoli qizi</i>	



Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tili fanini o'qitishda kreativlik qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari	294
<i>Xoliyeva Sevara Rustam qizi</i>	
Texnologiya darslarida raqamli texnologiyalar vositasida o'quvchilarning tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	298
<i>Xudoyberdiyeva Nilufar Raximqulovna</i>	
Umumta'lim maktablari musiqa darslarida media-kontentlardan foydalanib o'quvchilarda estetik didni shakllantirish.....	302
<i>Xudoyqulov Asilbek Aziz o'g'li</i>	
Педагогические стратегии профилактики раннего профессионального выгорания у студентов-медиков (в условиях высокой информационной нагрузки)	305
<i>Асророва Мафтунабегим Махаммадризо кизи</i>	
Формирование самоотношения у подростков, переживших насилие	308
<i>Кушакова Наргиза Исламбаевна, Азаркова Миланика Дмитриевна</i>	
Изучение развития эпистемических знаний у учащихся 5-го класса в педагогико-психологической литературе.....	311
<i>Нехочина Лола Шахобиддиновна</i>	
Когнитивные уровни читательской деятельности в заданиях PIRLS: типология, процессы понимания и система оценивания.....	314
<i>Нуруллаева Шахло Уктамовна, Александра Валерьевна Шаркова</i>	



IJTIMOYIY TARMOQLARNING TALABA YOSHLAR PSIXOLOGIYASIGA TA'SIRI

Saidakbarova Nigora Abduraxim qizi

Nizomiy nomidagi O'zMPU "Amaliy psixologiya" kafedrası PhD

Annotatsiya: Mazkur maqolada ijtimoiy tarmoqlarning talaba yoshlar psixologik holatiga ta'siri ijtimoiy-psixologik jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot davomida talabalarning ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish darajasi, stress holati, o'z-o'zini baholashi va muloqot jarayonlaridagi o'zgarishlar o'rganildi. Shuningdek, virtual muloqotning real hayotdagi ijtimoiy munosabatlarga ta'siri ham tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari ijtimoiy tarmoqlardan me'yoridan ortiq foydalanish psixologik zo'riqish, emotsional beqarorlik hamda kommunikativ faollikning pasayishiga olib kelishini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy tarmoqlar, talaba yoshlar, psixologik holat, stress, o'z-o'zini baholash, muloqot, emotsional holat, virtual muhit, media psixologiya.

Abstract: This article analyzes the impact of social networks on the psychological state of young students from a socio-psychological perspective. During the study, the level of students' use of social networks, stress levels, self-esteem, and changes in communication processes were examined. The influence of virtual communication on real-life social relationships was also analyzed. The results of the study showed that excessive use of social networks leads to psychological stress, emotional instability, and a decrease in communicative activity.

Key words: social networks, young students, psychological state, stress, self-esteem, communication, emotional state, virtual environment, media psychology.

Аннотация: В данной статье анализируется влияние социальных сетей на психологическое состояние студентов с социально-психологической точки зрения. В ходе исследования изучались уровень использования студентами социальных сетей, уровень стресса, самооценка и изменения в коммуникативных процессах. Также анализировалось влияние виртуального общения на социальные отношения в реальной жизни. Результаты исследования показали, что чрезмерное использование социальных сетей приводит к психологическому стрессу, эмоциональной нестабильности и снижению коммуникативной активности.

Ключевые слова: социальные сети, студенческая молодежь, психологическое состояние, стресс, самооценка, общение, эмоциональное состояние, виртуальная среда, медиапсихология.

KIRISH

Hozirgi globallashuv va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi davrida internet va ijtimoiy tarmoqlar inson hayotining muhim tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi natijasida insonlarning muloqot qilish usullari, axborot olish manbalari hamda kundalik faoliyati sezilarli darajada o'zgarib bormoqda. Ayniqsa, yoshlar va talabalar orasida internet texnologiyalaridan foydalanish darajasi yuqori bo'lib, ular ijtimoiy tarmoqlarning eng faol foydalanuvchilari hisoblanadi.

Bugungi kunda talabalar Telegram, Instagram, TikTok va Facebook kabi platformalardan ta'lim olish, axborot izlash, muloqot qilish, fikr almashish va bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida keng foydalanmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar insonlarga cheklanmagan miqdordagi axborotlardan foydalanish, yangi bilimlarni egallash va ijtimoiy aloqalarni kengaytirish imkonini yaratmoqda.

Biroq raqamli texnologiyalarning keng qo'llanilishi bilan bir qatorda ayrim psixologik muammolar ham yuzaga kelmoqda. So'nggi yillarda yoshlar orasida stress, emotsional zo'riqish, xavotirlik, yolg'izlik hissi va o'z-o'zini baholash bilan bog'liq muammolarning ortib borishi kuzatilmoqda. Ko'plab tadqiqotchilar ushbu holatlarning yuzaga kelishini ijtimoiy tarmoqlardan haddan tashqari foydalanish bilan bog'lashmoqda. Ayniqsa, virtual makonda doimiy ravishda ideal hayot tarzlari, muvaffaqiyat namunalari va tashqi ko'rinish standartlarining namoyish etilishi yoshlarning psixologik holatiga ta'sir ko'rsatadigan omillardan biri sifatida qaralmoqda.



Talabalik davri inson hayotining muhim bosqichlaridan biri bo'lib, bu davrda shaxsning dunyoqarashi, qadriyatlari, kasbiy yo'nalishi va psixologik xususiyatlari shakllanadi. Shu sababli aynan ushbu davrda ijtimoiy tarmoqlarning psixologik ta'sirini o'rganish nazariy va amaliy jihatdan muhim hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, ijtimoiy tarmoqlarning talaba yoshlar psixologik holatiga ko'rsatadigan ijobiy va salbiy ta'sirini aniqlash, ulardan foydalanishning psixologik oqibatlarini tahlil qilish hamda psixologik tavsiyalar ishlab chiqish zamonaviy psixologiya fanining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy yoshlarning dunyoqarashi, qadriyatlari va kundalik faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bugungi kunda virtual muhit insonning hayot tarziga chuqur kirib borgan bo'lib, u shaxslararo munosabatlar, axborot almashinuvi va shaxsiy rivojlanishning yangi shakllarini yuzaga keltirdi. Talaba yoshlar orasida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish darajasi yuqori bo'lib, ular internet makonida faol vaqt o'tkazadigan ijtimoiy guruhlardan biri hisoblanadi.

Virtual muhitning muhim xususiyatlaridan biri insonning o'zini ijobiy yoki ideal ko'rinishda namoyon etishga intilishidir. Ko'plab foydalanuvchilar o'z hayotining muvaffaqiyatli tomonlarini, yutuqlarini va ijobiy holatlarini namoyish qilishga harakat qiladilar. Natijada boshqa foydalanuvchilarda ushbu ma'lumotlar real hayotning to'liq ko'rinishi sifatida qabul qilinishi mumkin. Bu esa o'zini boshqalar bilan taqqoslash holatlarini kuchaytiradi.

Talaba yoshlar orasida o'zini ijtimoiy tarmoqlardagi boshqa foydalanuvchilar bilan solishtirish holatlari ko'p uchraydi. Ayniqsa, tashqi ko'rinish, moddiy farovonlik, muvaffaqiyatlar va ijtimoiy mavqega oid taqqoslashlar shaxsning o'z-o'zini baholashiga ta'sir ko'rsatadi. Natijada ayrim talabalarda ichki norozilik hissi, o'z imkoniyatlarini past baholash va psixologik noqulaylik holatlari yuzaga kelishi mumkin.

Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlardan uzoq vaqt foydalanish talabalarning psixofiziologik holatiga ham ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, uzoq muddat davomida virtual makonda vaqt o'tkazish uyqu sifatining pasayishi, kun tartibining buzilishi, diqqat va xotira jarayonlarining susayishi hamda emotsional charchoqning kuchayishiga olib kelishi mumkin. Ayniqsa, tungi vaqtlarda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish biologik ritmning buzilishiga sabab bo'lishi mumkin.

Bundan tashqari, virtual muloqotning ortishi ayrim hollarda real hayotdagi kommunikativ faollikning kamayishiga olib keladi. Talabalar ko'proq internet orqali muloqot qilishni afzal ko'rishlari natijasida real ijtimoiy aloqalar va hissiy yaqinlik darajasi pasayishi mumkin. Bu esa shaxslararo munosabatlarning sifati va ijtimoiy moslashuv jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatishi ehtimoldan xoli emas.

Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlarning ijobiy jihatlari ham mavjud. Ular orqali talabalar yangi bilimlarni egalash, onlayn kurslar va ta'lim resurslaridan foydalanish, ilmiy ma'lumotlar almashish hamda xalqaro muloqot imkoniyatlariga ega bo'ladilar. Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, yangi loyihalar yaratish va kasbiy rivojlanishiga ham xizmat qilishi mumkin.

Demak, ijtimoiy tarmoqlarning talaba yoshlar psixologik holatiga ta'siri murakkab va ko'p qirrali jarayon hisoblanadi. Uning ijobiy yoki salbiy ta'siri asosan foydalanish maqsadi, davomiyligi va shaxsning individual psixologik xususiyatlariga bog'liqdir. Shu sababli ijtimoiy tarmoqlardan oqilona va me'yoriy foydalanish madaniyatini shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mazkur muammo bo'yicha xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Jean Twenge yoshlarning ijtimoiy tarmoqlarga haddan tashqari bog'lanishi depressiv holatlar, xavotir darajasining oshishi hamda yolg'izlik hissining kuchayishiga sabab bo'lishini ta'kidlagan. Uning ilmiy izlanishlarida ayniqsa smartfon va internetdan ortiqcha foydalanish yoshlarning psixik salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi, uyqu sifati buzilishi va ijtimoiy faollikning pasayishi kuzatilishi qayd etilgan.

Shuningdek, Sherry Turkle virtual muloqotning real insoniy munosabatlarni zaiflashtirishini ilmiy asoslab bergan. U insonlarning onlayn muloqotga haddan tashqari berilishi natijasida empatiya, jonli suhbat madaniyati hamda hissiy yaqinlik kamayishini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, texnologiyalar insonlarni bir-biriga yaqinlashtirgandek ko'rinsa-da, aslida ularni psixologik jihatdan yakkalab qo'yishi mumkin.

Shuningdek, Mark Griffiths internet va ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik masalasini chuqur tadqiq qilgan olimlardan biri hisoblanadi. Uning tadqiqotlarida ijtimoiy tarmoqlardan me'yoridan ortiq foydalanish insonning kundalik faoliyatiga, o'qish samaradorligiga va emotsional barqarorligiga salbiy ta'sir etishi ko'rsatib o'tilgan. Olim virtual muhitga bog'lanishning ayrim hollarda psixologik qaramlik shakliga aylanishini ilmiy jihatdan izohlab bergan.

Rus psixologlari orasida Aleksandr Asmolov va Elena Belinskaya internet kommunikatsiyasining shaxs rivojlanishiga ta'sirini o'rgangan. Ularning tadqiqotlarida virtual muhitning yoshlar identifikatsiyasi, kommunikativ xulqi hamda ijtimoiy moslashuviga ta'siri ko'rsatib berilgan. Xususan, internet makonida yoshlarning o'z "men" obrazini shakllantirishi, virtual guruhlariga qo'shilishi va ijtimoiy rollarni o'zlashtirishi psixologik jihatdan

tahlil qilingan. Tadqiqotchilar virtual kommunikatsiya ayrim hollarda shaxsning real hayotdagi ijtimoiy faolligini kamaytirishi mumkinligini ham qayd etganlar.

Bundan tashqari, rus olimi David Feldstein zamonaviy axborot muhiti yoshlarning dunyoqarashi va qadriyatlar tizimiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini ta'kidlagan. U axborot oqimining haddan tashqari ko'payishi yoshlarning diqqat jarayonlari, mustaqil fikrlashi va ma'naviy rivojlanishiga bevosita ta'sir qilishini ilmiy asosda yoritib bergan.

O'zbek psixologlari tomonidan ham yoshlar psixologiyasi, internet madaniyati va media ta'siriga oid ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda. Tadqiqotlarda ijtimoiy tarmoqlarning yoshlarning emotsional holati, kommunikativ madaniyati va qadriyatlar tizimiga ta'siri muhim omil sifatida qayd etilgan. Mahalliy olimlar yoshlarning internetdan foydalanish madaniyatini shakllantirish, axborot xavfsizligini ta'minlash va media savodxonlikni rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratmoqdalar. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar ongiga ta'sirini kamaytirishda oilaviy muhit, ta'lim muassasalari va psixologik profilaktika ishlari muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlanadi.

Bugungi kunda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, ijtimoiy tarmoqlar yoshlar hayotida katta o'rin egallayotgan bo'lsa-da, ulardan oqilona va me'yorida foydalanish psixologik salomatlikni saqlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli yoshlarning media madaniyatini rivojlantirish, ularda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish hamda real ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlash dolzarb masala sifatida e'tirof etilmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot talaba yoshlar orasida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning psixologik holatga ta'sirini aniqlash hamda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish davomiyligi bilan stress, emotsional holat va o'z-o'zini baholash ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilishga qaratildi. Tadqiqot metodologiyasi ilmiylik, obyektivlik va tizimlilik tamoyillariga asoslangan holda tashkil etildi.

Tadqiqot davomida nazariy va empirik metodlardan kompleks tarzda foydalanildi. Nazariy metodlar yordamida mavzu yuzasidan mavjud ilmiy manbalar, ilmiy qarashlar va psixologik nazariyalar o'rganildi hamda tahlil qilindi. Empirik metodlar esa respondentlarning psixologik xususiyatlarini amaliy jihatdan aniqlash va baholash imkonini berdi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

- 1. Psixologik adabiyotlarni tahlil qilish metodi.** Ushbu metod orqali ijtimoiy tarmoqlar, shaxs psixologiyasi, stress, emotsional holat va o'z-o'zini baholash bilan bog'liq ilmiy manbalar o'rganildi. Mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari tahlil qilinib, tadqiqotning nazariy asoslari shakllantirildi.
- 2. So'rovnoma metodi.** Respondentlarning ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish xususiyatlari, foydalanish davomiyligi, maqsadlari va ularda yuzaga keladigan psixologik holatlarni aniqlash maqsadida maxsus so'rovnomalar tashkil etildi. Ushbu metod ishtirokchilarning individual fikr va qarashlarini o'rganish imkonini berdi.
- 3. Kuzatish metodi.** Talabalarning xulq-atvori, muloqot faoliyati va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish jarayonidagi ayrim psixologik xususiyatlarini tahlil qilish uchun kuzatish metodidan foydalanildi. Ushbu metod orqali respondentlarning hissiy reaksiyalari va ijtimoiy faolligiga oid ma'lumotlar olindi.
- 4. Rozenbergning o'z-o'zini baholash metodikasi.** Tadqiqot ishtirokchilarining o'ziga bo'lgan munosabati va o'z-o'zini baholash darajasini aniqlash maqsadida ushbu metodikadan foydalanildi. Metodika shaxsning o'z qadr-qimmatini qanchalik ijobiy yoki salbiy qabul qilishini aniqlash imkonini beradi.
- 5. Stress darajasini aniqlash testi.** Respondentlarda psixologik zo'riqish, emotsional bosim va stress darajasini baholash uchun mazkur psixodiagnostik vosita qo'llanildi.
- 6. Matematik-statistik tahlil metodlari.** Tadqiqot davomida olingan ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish uchun statistik usullardan foydalanildi. Natijalar foiz ko'rsatkichlari, o'rtacha qiymatlar hamda korrelyatsion tahlillar orqali qayta ishlanib, psixologik omillar o'rtasidagi bog'liqlik darajasi aniqlandi.

Tadqiqotda 18-25 yosh oralig'idagi talaba yoshlar ishtirok etdi. Respondentlar turli fakultet va yo'nalishlarda tahsil olayotgan talabalar orasidan tanlab olindi. Tadqiqot davomida ularning ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish davomiyligi, foydalanish maqsadlari va psixologik ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tahlil qilindi.

Tadqiqot quyidagi bosqichlar asosida amalga oshirildi:

- mavzuga oid ilmiy manbalarni o'rganish va nazariy tahlil qilish;
- respondentlarni tanlash va psixodiagnostik metodlarni qo'llash;



- olingan ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlash;
- statistik tahlillar asosida natijalarni baholash;
- tadqiqot natijalari asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari talaba yoshlarning ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish xususiyatlari va ularning psixologik holati o'rtasida muayyan bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi. Olingan ma'lumotlarning tahlili shuni ko'rsatdiki, kuniga 5 soatdan ortiq ijtimoiy tarmoqlardan foydalanuvchi respondentlarda stress va emotsional charchoq ko'rsatkichlari nisbatan yuqori bo'lgan.

Tahlillar davomida uzoq vaqt virtual muhitda bo'lish talabalarda ruhiy zo'riqish, diqqatning pasayishi va hissiy beqarorlikning kuchayishi bilan bog'liq ekanligi aniqlandi. Bunday respondentlarda o'quv faoliyatiga qiziqishning susayishi va kun tartibining buzilishi kabi holatlar ham kuzatildi.

Shuningdek, virtual muhitda boshqa foydalanuvchilar bilan o'zini taqqoslash holatlari o'z-o'zini baholash ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Ayniqsa, tashqi ko'rinish, moddiy imkoniyatlar va muvaffaqiyatlar bilan bog'liq taqqoslashlar ayrim respondentlarda o'zidan qoniqmaslik hissini kuchaytirgan.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, ijtimoiy tarmoqlardan me'yoridan ortiq foydalanish real muloqot faolligining pasayishiga ham olib kelmoqda. Ayrim respondentlarda yolg'izlik hissi, kommunikativ qiyinchiliklar va ijtimoiy moslashuv bilan bog'liq muammolar kuzatildi. Bu holat virtual muloqotning real ijtimoiy aloqalar o'rnini to'liq bosa olmasligini ko'rsatadi.

Biroq tadqiqot ijtimoiy tarmoqlarning faqat salbiy emas, balki ijobiy ta'sirlari ham mavjudligini ko'rsatdi. Xususan, ijtimoiy tarmoqlardan ta'limiy va ilmiy maqsadlarda foydalanayotgan talabalar orasida axborot almashish, yangi bilimlarni egallash va o'quv motivatsiyasi ko'rsatkichlari yuqoriroq ekanligi aniqlandi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning o'zi emas, balki undan foydalanish maqsadi va davomiyligi shaxsning psixologik holatiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot natijalari ijtimoiy tarmoqlarning talaba yoshlar psixologik holatiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. Zamonaviy axborot texnologiyalari va virtual muloqot vositalarining keng rivojlanishi yoshlarning kundalik hayoti, dunyoqarashi va ijtimoiy munosabatlariga yangi imkoniyatlar yaratishi bilan bir qatorda, ularning psixologik holatida ham muayyan o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda.

Tadqiqot davomida olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish davomiyligi va ulardan foydalanish maqsadi talabalarning ruhiy holati bilan bevosita bog'liqdir. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlardan haddan tashqari foydalanish stress, emotsional zo'riqish va psixologik charchoqning kuchayishiga olib kelishi mumkinligi aniqlandi. Virtual makonda uzoq vaqt bo'lish talabalarda diqqatning susayishi, hissiy beqarorlik va ruhiy noqulayliklarning paydo bo'lishiga sabab bo'lishi kuzatildi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari virtual muloqotning ortib borishi ayrim hollarda real hayotdagi kommunikativ faollikning pasayishiga olib kelishini ko'rsatdi. Ijtimoiy tarmoqlarda ko'proq vaqt o'tkazuvchi talabalar orasida shaxslararo muloqotning kamayishi, yolg'izlik hissining ortishi hamda ijtimoiy moslashuv bilan bog'liq qiyinchiliklar kuzatildi. Bu esa virtual muhit real insoniy munosabatlarni to'liq almashtira olmasligini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlarning psixologik ta'siri har doim ham salbiy bo'lavermasligi aniqlandi. Ulardan maqsadli va me'yorida foydalanish talabalarning bilim olish, axborot almashish, kasbiy rivojlanish va ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qilishi mumkin. Demak, muammo ijtimoiy tarmoqlarning mavjudligida emas, balki ulardan foydalanish shakli va madaniyatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi xulosalarga kelindi:

- ijtimoiy tarmoqlar talaba yoshlar psixologik holatiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi;
- ijtimoiy tarmoqlardan haddan tashqari foydalanish stress, emotsional zo'riqish va psixologik charchoqning kuchayishiga olib keladi;
- virtual muloqotning ortishi real kommunikativ faollikning pasayishiga sabab bo'lishi mumkin;
- o'zini boshqa foydalanuvchilar bilan doimiy taqqoslash holatlari o'z-o'zini baholashga salbiy ta'sir ko'rsatadi;
- ijtimoiy tarmoqlardan maqsadli va me'yoriy foydalanish shaxsning psixologik salomatligini saqlashda muhim ahamiyatga ega;



- internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning mazmuni va yo'nalishi shaxsning psixologik rivojlanishiga turlicha ta'sir ko'rsatadi.
Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:
- talabalar uchun media madaniyat va psixologik savodxonlikka oid treninglar, seminarlar va amaliy mashg'ulotlarni muntazam tashkil etish;
- oliy ta'lim muassasalarida raqamli gigiyena va internetdan oqilona foydalanish bo'yicha targ'ibot ishlarini kuchaytirish;
- yoshlarni real ijtimoiy faollikka jalb etuvchi psixologik va ijtimoiy dasturlar ishlab chiqish;
- talabalar uchun stressni boshqarish, emotsional barqarorlikni rivojlantirish va vaqtni samarali boshqarish bo'yicha treninglar tashkil qilish;
- psixologik xizmat faoliyatini takomillashtirish va talabalarga individual psixologik yordam ko'rsatish tizimini rivojlantirish;
- talabalarining bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga qaratilgan sport, madaniy va ijodiy tadbirlar sonini oshirish.

Umuman olganda, yoshlarning psixologik salomatligini saqlash, ularda sog'lom turmush tarzi va raqamli madaniyat ko'nikmalarini shakllantirish bugungi ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu esa nafaqat shaxsning barkamol rivojlanishiga, balki jamiyatning intellektual salohiyatini oshirishga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jean Twenge. iGen. - New York: Atria Books, 2017.
2. Sherry Turkle. Alone Together. - New York: Basic Books, 2011.
3. Aleksandr Asmolov. Psixologiya lichnosti. - Moskva, 2019.
4. Elena Belinskaya. Internet va shaxs psixologiyasi. - Moskva, 2020.
5. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. - Toshkent, 2020.
6. Davletshin M.G. Yosh davrlari psixologiyasi. - Toshkent, 2019.
7. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya asoslari. - Toshkent, 2021.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(4)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.